O‘zMU XABARLARI
ВЕСТНИК НУУз
ACTA NUUz

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

JURNAL
1997 YILDAN CHIQA BOSHLAGAN

2025
1/7

Ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumi

Bosh muharrir:

MADJIDOV I.U.– t.f.d., professor.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

ERGASHOV Y.S.– f-m.f.d., professor.

SHIRINOVA R.X. – fil.f.d., professor.

Tahrir hay’ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.
Suleymanov R.X. – t.f.d., prof.
Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.
Musayev N.U. – t.f.d., prof.
Urakov D.J. – t.f.d., prof.
Xolikulov A.B. – t.f.d., prof.
Yermetov A.A. – t.f.d., prof.
Zuyev A.S. – t.f.d., prof.
Jesus Fuensanta. – t.f.d., prof
Muxamedova D.G. – psix.f.d., prof.
Karamyan M.X. – psix.f.d., prof.
Rasulov A.I. – psix.f.d., prof.
Madayeva Sh.O. – f.f.d, prof.
Sobirova U.F. – sots.f.d., prof.
Xudaykulov H.J. – ped.fan.d., prof.
Miroslav Ballay – PhD, prof.
Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.
Sadullayeva N.A. – fil.f.d., dots.
Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.
Boltaboyev H. – fil.f.d., prof.
Rahmonov N.A. – fil.f.d., prof.
Abdurahmonova N.Z. – fil.f.d., prof.
Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., dots.

Mas’ul kotib: PARDAYEV Z.A.

TOSHKENT – 2025

MUNDARIJA

Tarix

Alimardonov O. “Amir Temur davlati tashqi siyosatida xalq diplomatiyasi tamoyillari: tarixiy tajriba va zamonaviy ahamiyati” 4
Baqoyev U. Imomqulixonning Eron shohlari bilan siyosiy aloqalari 9
Ilkhamova I. Medical museums: historical formation, international experiance and researches 13
Kurbanov K. Buxoro amirligida qulchilik masalasi Sadriddin Ayniy va Turg‘un Fayziyev talqinida 16
Mamatqobilova S. Yunon-Baqtriya podshosi Yevkratidi tangalari haqida 20
Nasriddinova N. Surxondaryoda baxshichilik san’atining shakllanish jarayoni 23
Odinayev Ch. Qadimgi turkiylarning mifologik qarashlari 26
Rahmonberdiyeva M. Moddiy manbalarida Mitra xudosi ifodalangan arxeologiya yodgorliklari 29
Ro‘ziyeva T. Mirzo Sirojiddin Hakimning Buxorodagi ijtimoiy jarayonlarda tutgan o‘rni va ilmiy faoliyati 32
Sulaymonov B. Buxoro xonligining siyosiy va madaniy rivojida Imomqulixonning tutgan o‘rni va roli 35
Умаркулова А. Инструменты и механизмы реализации «Мягкой силы» в политической науке 39
Kholikulova K. Ayollarning liderlik salohiyati haqida O‘rta asrlar g‘oyaviy merosi: din, falsafa va feministik g‘oyalar tizimida tahlil 42

Falsafa. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. Sotsiologiya. Siyosiy fanlar. Islomshunoslik

Abduvaxidov A. Ma’rifatparvar Sarvepalli Radhakrishnanning ta’lim haqidagi qarashlari 45
Abdusalimov A. Mirza G‘olib merosi: falsafiy va adabiy dunyoqarashning uyg‘unligi 48
Abdufattayeva Sh. Mustafo Komilning Misr ma’rifatparvarlik harakati rahnamosi sifatidagi faoliyati 51
Achilov N. Al-Hakim at-Termiziy hayot yo‘lining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni 54
Babajanov S. Ijtimoiy nazorat va jamoatchilik ishtiroki: g‘arb falsafasidagi tamoyillar va O‘zbekiston amaliyoti 57
Гулямов Х. Применение логических принципов построения классификации в «Каноне врачебной науки» Абу Али ибн Сины: универсальные основы научной систематизации 60
Джумаева Г. Современная санкционная политика: оправданность применения и последствия для Центральной Азии 64
Zamonova Sh. Fizikadan yangi mavzuni tushuntirishda muammoli ta’limdan foydalangan holda o‘qitish metodikasi 68
Ильясова Д. Роль импровизации в джазовой фортепианной музыке 72
Ishmuradova G., Mirzayev E. Triz metodi asosida konstruktiv kompetentlikni takomillashtirish metodikasi 75
Kasimov M. Pokiston – Hindiston – Xitoy “uchburchagi” dagi mamlakatlar faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar 79
Kunnazov Q. O‘quvchilarda ko‘rib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari ustida ishlash tamoyillari 82
Kurbanov M., Kurbanov H. Innovatsion texnologiyalar asosida “Jismlarning suyuqliklar va gazlardagi harakati”ga oid namoyish tajribalarini ko‘rsatish 86
Kurbonaliyev U. Qadriyatlar kategoriyasining falsafiy mazmuni va ularning jamiyat rivojlanishidagi dinamikasi 90
Mansurova M. Ma’naviyat va ijtimoiy boshqaruvda huquqiy-axloqiy muvozanat 93
Mardonov E. O‘quvchilarning tafakkurini shakllanishida tafakkur tipining ahamiyati 96
Maxsudjonov K. “Globallashuv sharoitida shaxs ma’naviy madaniyatining shakllanishi” 99
Mirgiyazova M. Enhancing law students’ oral proficiency through discursive competence in english 103
Mirzaliyeva D. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy yetuklikni shakllantirish: akmeologik yondashuvga asoslangan metodik yondashuv 106
Atavullayev M., Nabiyev D. Ma’naviy va axloqiy taraqqiyotning davlatning ichki va tashqi siyosatiga ta’siri 110
Nazarova N. Ta’lim va raqobatbardoshlik: yoshlar rivojlanishidagi zamonaviy yo‘nalishlar 113
Narimanov Q. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati borasidagi siyosiy yondashuv 117
Niyozmetova R. A competency-based modular model for teaching pluriculturalism in teacher education 120
Нишанов Я. Современные педагогические подходы к развитию межкультурной коммуникации студентов в глобализированном образовательном пространстве 123
Odilova Sh. “Bo‘lajak fizika o‘qituvchilariga “Aniq integral” bo‘limini o‘qitish metodikasini takomillashtirish” 127
Omanov P. Talabalar pluringuval va ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini integrativ rivojlantirish strategiyalari va texnologiyalari 130
Pazilov M. Ta’lim jarayonida kognitiv yondashuv o‘quvchilarning musiqiy iqtidorini rivojlantirish omili sifatida 134
Raximjonova Sh. Huquqiy jurnalistika: mohiyati, funksiya va tamoyillari 137
Rahimova Sh. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish orqali ta’lim sifatini ta’minlash mexanizmlari 141
Rustamova D. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o‘quvchilar bilish faoliyatini faollashtirishning nazariy asoslari 145
Sayfullayev R., Yuldashev M., Bozorov E. Tibbiy qurilmalarning sun'iy intellekt asosidagi zamonaviy pedagogik tahlili 148
Safarov I. Zamonaviy sakral geografiyaning ilmiy-metodologik asoslari 151
Tilavoldiyev O. Tanqidiy fikrlashning mazmuni, mohiyati va asosiy vazifalari: adabiyotlar tahlili 155
Toxirova G. Yoshlarda professional kariyerasini takomillashtirishning psixologik omillari 158
Tulyaganova R. Ayollardagi tana va men obrazining oila-nikoh munosabatlariga ta’siri 161
Tursunboyeva Sh. Dunyoqarashning tarixiy taraqqiyotida o‘lim va barhayotlikka munosabat 164
Tursunova M. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi doirasida chet tili o‘qituvchilarining individual strategiyalarini takomillashtirish 167
Umarova N. O‘zbek tili darslarida o‘quv topshiriqlari asosida gapirish va o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish 170
Umirova H. Pedagogik texnika-o‘qituvchining fe’l-atvori, yurish-turishining tashkiliy usullar majmui sifatida 173
Usmanova G. Oliy ta’lim tizimida boshqaruvni tashkil etishning evolyutsiyasi 176
Fayziyev A. Boshlang‘ich sinflarda ko‘rib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish usullari 179
Xoldarov M. Yangi O‘zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkurida oilaning aks etishi va dinamikasi 182
Xudoyqulov Y. Harbiy xizmatchilar bilimi – falsafaning tadqiqot obyekti sifatida 185
Choriyev O. Sun’iy intellektning zamonaviy pedagogikaga integratsiyasi va ta’lim jarayonida qo‘llash istiqbollari 188
Ширу Л., **Цзин Я**. Тайцзицюань, Кунг-фу, Цигун: взаимосвязи и отличия между китайскими боевыми искусствами 191
Shokirova D. Nutqdagi muammolarni aniqlash va bartaraf etishning genderga yo‘naltirilgan usullari 194
Eshpulatova J. Boshlang‘ich ta’lim ona tili darsida o‘quvchilarni kreativ qobiliyatini rivojlantirishning metodik tizimi 197
Yusupova M. Ingliz tilida yozma nutqni rivojlantirish jarayonida sodir bo‘ladigan psixofiziologik hodisalar va psixolingvistik tushunchalar tahlili 200

Yarlakabov J. Zamonaviy jamiyatda javobgarlik va ma'suliyat uyg'unligi 203

Filologiya

Absamadov B. Real hayotga qaytish: "Qurol va inson" va "Temir xotin" komediyalarida romantik illuziyalar va zamonaviy ong to'qnashuvi 206
Алиева Ш. Использование технологий PR – воздействия в прессе (на примере американских изданий**)** 210
Baratova H. Linguocultural study of occupational terms in the english and uzbek languages 213
Begjanova Dj. Structural and syntactic analysis of paremiological units of uzbek, karakalpak, and english languages 216
Боймирзаева З. Лексический минимум английского языка для студентов экономических специальностей в вузах Узбекистана 219
Botirova A. Elektron lug'atlarning mikrostrukturasidagi gipermatnli tuzilma va interaktiv axborot taqdimoti 222
Dadaboyev O. Tarixiy manbalarning hujjatli romanlar yaratilishidagi ahamiyati 225
Diyorova M. Multimodal ifoda vositalarida "Xayp"(matn, rasm, video) va transkultural tendensiyalar 229
Jo'rayeva M. XX asr II-yarmi o'zbek g'azallarining shakliy tasnifi 232
Ibragimov Sh. Televideniyeda iqtisodiy informatsion ko'rsatuvlarning roli ("Axborot-24" informatsion dasturi misolida) 235
Ibrohimov N. Abul Hasan Marg'inoniyning "Mahosin ul-kalom" asarining qo'lyozmasida kirish qismning matni berilishi va mazmuni 238
Kamalova Sh. Modality of english future tense expressions 241
Karimova Sh. Turk hikoyanavisligida psixologizm masalasi 244
Mamarasulov U. The rendering of metaphor, simile, and irony in indirect translation (a case study of the introductory part of E. M. Remarque's the road back) 247
Mahmudjonova M. Struktur tilshunoslikda valentlik hodisasining talqini 250
Муллажонова З. Классификация сложных слов в русском языке: структурные и семантические особенности 253
Muratkhodjaeva F. Milliy madaniyat va hissiy leksika: konseptual yondashuv 257
Murodova D. Urushdan keyingi Koreya adabiyoti: nigilizm va umidsizlikning badiiy in'ikosi 260
Murodova M., Ruzmatova G. Jahon adabiyotshunosligida voqelikni satirik tanqid qilishning o'ziga xos omillari 264
Mustafaqulova Z. Til o'qitish metodikasiga oid leksik birliklarning (anglisizmlarning) tadqiqi 267
Omanov Sh. Nemis tilshunosligida partikellarning o'rganilish darajasi 270
Pazilova N. Madaniyatlararo muloqotda olmoshlarning funktsional moslashuvi: o'zbek, rus va ingliz tillari misolida 274
Расулова Д. Конвергенция с доминирующим языковым средством на материале художественного текста 277
Rakhimov M. Problems of creating a linguistic corpus based on jurisdictive texts 281
Raxmatova M. Global ekologik muammolar jarayonida ijtimoiy-ekologik muhofazani takomillashtirish shartlari 284
Rahmonova M. O'zbek xalq marosimlari 287
Rixsiyeva A. "Ko'ngil" komponentli frazeologizmlarning psixosemantik talqini 289
Saidova M. Deiktik birliklarning badiiy diskursda kogerensiya hosil qilishdagi pragmatik funksiyasi 293
Samatova Sh. The study of pragmatic means that construct dramatic discourse 296
Sobirjonova M. Tarjimada metaforani yetkazib berishning uslubiy o'ziga xosliklari 298
Suyunova M. Shuhrat asarlarida "Urush" milliy istiqlol va birlikning poydevori sifatida 301
Tangriyeva L. Tilshunoslikka oid tadqiqotlarda "Matn" tushunchasining ifodalanishi 304
Togaymurodova R. Challenges in translating gastroenterological terminology in the context of coronary heart disease 307
Tursunaliyeva M. Ogahiyning "Zubdat ut-tavorix" asarida hamd matnidagi so'zlar jilvasi 310
Tursunov A. Edward Saidning "Orientalizm" konsepsiyasi xususida 313
Tursunova Ch. Ilmiy matnlarda metaforalarning semantik struktur tahliliga doir 317
Зунг Тю. Развитие коммуникативной культуры учащихся в процессе изучения китайского языка 321
Orazalieva G. Qoraqalpog'iston jurnallarining asosiy tematik yo'nalishlari 324
Usmanova L. Kompyuter lingvistikasi diskursida antropomorfik metaforalarning lingvopragmatik xususiyatlari 327
Hojimatov M. "Erkin Vohidov ijodida milliy o'zlik ruhi va istiqlol tafakkuri talqini" 330
Xo'shbaqova N. Ingliz va o'zbek tillarida yo'l belgilariga oid terminlarining lingvomadaniy xususiyatlari 333
Xushmamatova A. Pragmatic aspects of dialogic communication in english and uzbek dramatic discourse 336
Khazratkulov O., Nabiyev Sh. Structural, semantic, and cognitive features of english and uzbek phraseological units with zoonomic components 339
Elov B., Suyunova M. Aspektga asoslangan sentiment tahlil (ABSA)ning shakllanishi 342

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/7]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 81’25(821.112.2)

Umidjon MAMARASULOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0000-8735-9718
E-Mail: mamarasulov_u@nuu.uz

P.f.n. E.Uraeva taqrizi asosida

THE RENDERING OF METAPHOR, SIMILE, AND IRONY IN INDIRECT TRANSLATION (A CASE STUDY OF THE INTRODUCTORY PART OF E. M. REMARQUE’S THE ROAD BACK)

Annotation

The article investigates specific challenges in translating rhetorical devices, such as metaphor, comparison, and irony in indirect translation. It is based on a comparative analysis of the original German text of Erich Maria Remarque’s novel Der Weg zurück and its translations into Russian and Uzbek. The article discusses the strategies used to preserve the imagery and emotional impact of the source text. The findings offer valuable insights into both the theoretical and practical dimensions of literary translation.
Key words: metaphor, comparison, irony, indirect translation, literary expressive means, comparative analysis, stylistic figures.

ПЕРЕДАЧА МЕТАФОРЫ, СРАВНЕНИЯ И ИРОНИИ В КОСВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ (НА ПРИМЕРЕ ВСТУПИТЕЛЬНОЙ ЧАСТИ РОМАНА Э. М. РЕМАРКА «ВОЗВРАЩЕНИЕ»)

Аннотация

В статье рассматриваются специфические проблемы передачи таких художественных выразительных средств, как метафора, сравнение и ирония, при косвенном переводе. Исследование основывается на сравнительном анализе оригинального текста романа Эриха Марии Ремарка «Der Weg zurück» и его переводов на русский и узбекский языки. Подробно освещаются стратегии переводчиков в сохранении образности и эмоциональной выразительности исходного текста. Результаты работы важны для теории и практики художественного перевода.
Ключевые слова: метафора, сравнение, ирония, косвенный перевод, художественные выразительные средства, сравнительный анализ, стилистические фигуры.

METAFORA, O‘XSHATISH VA KINOYANING BILVOSITA TARJIMADA BERILISHI (“DER WEG ZURÜCK” (E.M.REMARK) ROMANINING KIRISH QISMI MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada metafora, o‘xshatish va kinoya kabi badiiy tasvir vositalarining boshqa tillarga bilvosita tarjimasida yuzaga keluvchi muammolar chuqur tadqiq etilgan. Tadqiqot materiali sifatida nemis yozuvchisi Erix Mariya Remarkning “Der Weg zurück” romanining kirish qismi hamda uning rus va o‘zbek tillariga qilingan tarjimalari tanlangan. Maqolada badiiy tasvir va ifoda vositalarining tarjimadagi o‘ziga xos jihatlari, tarjima strategiyalari va mavjud yechimlar qiyosiy-tahliliy usul orqali ochib berilgan. Olingan natijalar badiiy tarjima nazariyasi va amaliyotiga muhim hissa qo‘shadi.
Kalit so‘zlar: metafora, o‘xshatish, kinoya, bilvosita tarjima, badiiy tasvir vositalari, qiyosiy tahlil, stilistik figuralar, Erix Mariya Remark, «Ortga yo‘l».

Kirish. Badiiy asar tarjimasida e’tibor berilishi kerak bo‘lgan bir qator masalalar mavjud. Ulardan biri ekvivalentlilikdir. Ekvivalentlik tarjima nazariyasidagi asosiy masala xisoblanadi. Uning asosini o‘zga tilga tarjima qilingan matn asl matn bilan bir xil mazmun va vazifa bajarishiga asoslanishni ifodalaydi. G‘. Salomovning ta’kidlashicha, ekvivalentlik lingvistik tarjima masalalarining asosiy yo‘nalishlaridan xisoblanadi[1]. Ekvivalentlikning dinamik va shakliy ekvivalentlik kabi turlari mavjud bo‘lib, dinamik ekvivalentlikda tarjimon yaratayotgan matnning o‘zga til egalariga ta’sir qilish effektiga asosiy diqqat qaratilsa, shakliy ekvivalentlik asl matnning til qurilishi va strukturasini saqlab qolishga e’tibor qaratadi.

Ekvivalent so‘ziga O‘zbek tilining izohli lug‘atida “ – Teng, teng bo‘lgan; mos keladigan, o‘rnini bosa oladigan.”[2;24] – deya ta’rif berilgan bo‘lsa-da, tarjima jarayonida bir-biriga ekvivalent bo‘lgan so‘zlarning ma’nolari hamisha ham teng bo‘lavermaydi. Jumladan, ukrain xutori — o‘zbek qishlog‘i emas, o‘zbek qishlog‘i — qozoqlarning ovuli emas, qozoq ovuli esa qirg‘izning ayilidan farq qiladi. Bular o‘ziga xos milliy-territorial xususiyatlarga ega bo‘lgan aholi va xo‘jalik birliklaridir.[1;83]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Badiiy tarjima va uslubiy vositalarni o‘rganish xalqaro tarjimashunoslikda keng muhokama qilingan masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, turli madaniy muhitlarda badiiy san’atlarning saqlanishi va o‘zgarishi ko‘plab olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Mashhur nemis tarjimashunosi Verner Koller "Einführung in die Übersetzungswissenschaft" (2011) asarida ekvivalentlik nazariyasini chuqur tahlil qilib, badiiy uslubni saqlash va qayta ishlashning samarali usullarini muhokama qilgan. Rus tilshunosligining yirik vakili Yuriy Lotman "Struktura xudojestvennogo teksta" (1970) asarida badiiy matnlarning semiotik tahlilini amalga oshirib, tarjimada uslubiy vositalarning saqlanishi masalalarini yoritgan. Andrey Fyodorov "Основы общей и художественной переводоведения" (1983) asarida badiiy uslubni saqlash bo‘yicha nazariy yondashuvlarni ishlab chiqib, tarjimada uslubiy o‘zgarishlarning sabablarini o‘rgangan. Uning tadqiqotlari tarjimon uchun uslubiy qiyinchiliklarni va ularni

yechish strategiyalarini aniqlashga qaratilgan. Jahon tarjimashunosligida katta ta’sirga ega bo‘lgan ingliz olimlaridan biri Lourens Venuti "The Translator’s Invisibility" (1995) asarida tarjimon mavjudligining badiiy tarjimadagi ta’sirini o‘rganib, tarjimon uslubiy qarorlari tarjimaning originalga mosligini qanday shakllantirishini ko‘rsatadi. Oxirgi yillarda badiiy san’atlar va ularning tarjimada saqlanishi yoki o‘zgarishi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Mamadjanova Maftunaxon Uktamovna o‘zining tadqiqotida o‘zbek va ingliz tillarida epitetlarning qiyosiy tahlilini amalga oshirgan. Shuningdek, Azimova Muxayyo Pulatjonovna o‘z tadqiqotida giperbola, meyozis va litota kabi uslubiy vositalarning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rgangan. Turaxonova Xosiyatxon Maxamadolimovna esa Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarining ingliz tiliga tarjimasida badiiy san’atlarning lingvopragmatik tahlilini amalga oshirgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot materiali sifatida “Der Weg zurück” romanining birinchi bobidan parchalar, asarning kirish qismi olingan. Ushbu parchalar muallif tomonidan nemis tilida yozilgan[11] bo‘lib, ular asosida amalga oshirilgan qiyosiy tahlil uchun ikki tarjima matni tanlandi. Biri asarning rasmiy ruscha tarjimasi[12] (“На обратном пути”), ikkinchisi o‘zbekcha tarjima[13] (“Ortga yo‘l”).

Tahlil usuli matnshunoslik va tarjimashunoslikning tasviriy hamda qiyosiy usullari uyg‘unligidadir. Avvalo, nemischa matndan badiiy tasvir va ifoda vositalari aniqlab olindi va har biri morfologik jihatdan qisqacha tahlil qilindi. So‘ng ushbu figurativ ifodalarning rus va o‘zbek tillaridagi tarjimalari solishtirildi. Qaysi birlari so‘zma-so‘z tarjima qilingan, qaysi hollarda tarjimon adaptiv ekvivalent topgan yoki kompensatsiya usulidan foydalangan, qaerda qisqartirish yoki neytrallashtirish sodir bo‘lgan shu kabi jihatlar kuzatildi. Tarjima davomida stilistik effekt saqlanganmi, o‘zgarganmi yoki susayganmi, natijalar bo‘limida har bir badiiy tasvir va ifoda vositalari misolida shu savollarga javob izlandi. Ish yakunida olingan kuzatuvlar xulosa qilinib, tarjima nazariyasining tegishli tamoyillari bilan bog‘landi.

Tahlil va natijalar. Romanning kirish qismida metaforik ifodalar, ya’ni ko‘chma ma’noli obrazli tasvirlar ko‘p uchraydi. Metafora mohiyatan yashirin o‘xshatish bo‘lib, unda o‘xshatilayotgan narsa tilga olinmagan holda uning ma’nosini o‘xshayotgan narsa bildiradi.[10;170] Masalan, askarlardan biri Yuppning qorni ochlikdan g‘uldirab tovush chiqarganda, Kozole bunga nisbatan hazilomuz metafora ishlatadi: “Dir zischt der Kohldampf im Bauch, das sind deine Granaten”[11;7]. Bu jumlada Kohldampf (so‘zma-so‘z “karam bug‘i”[3; 103, 252], metaforik ma’nosi – kuchli ochlik) shaxs sifatida tasvirlanib, Yuppning qornida “vishshillab” (zischt) ovoz chiqarmoqda deb kinoya qilinadi. Qorin quldirashini esa askarlar granata portlashiga qiyoslaydilar. Granaten so‘zi metaforik qo‘llanib, “granatalar” deganda qorin tovushi nazarda tutilgan. Ruscha tarjimada bu metafora biroz sodda shaklga keltirilgan. “В животе у тебя урчит, вот и все твои гранаты”[12, 3] – ya’ni “qorning g‘ir-g‘ir etyapti, mana shu sening granatalaring xolos”. Bu yerda “урчит” fe’li qorin g‘uvullashini bevosita nomlab, asl matndagi “Kohldampf ” obrazi tushirib qoldirilgan. Biroq “гранаты” so‘zi baribir qorin tovushini tasvirlash uchun ishlatilib, metaforaning ikkinchi qismi – qorin quldirashi granata portlashiga qiyoslanishi saqlab qolingan. O‘zbek tiliga qilingan tarjimada ham xuddi shunday yo‘l tutilgan. “Qorning ochlikdan quldirayapti, ana shu sening snaryadlaring”[13;7]. Bu tarjimada ham “ochlikdan quldirash” iborasi qorin ochligining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodasidir. Nemischa “zischt” – vishshillamoqda, o‘rniga oddiyroq “quldiramoqda” – g‘uldiramoqda, qo‘llangan. Natijada “Kohldampf” metaforasi ochlikni “karam bug‘i”ga o‘xshatish obrazi tarjimada yo‘qolgan. Buni reduksiya deyish mumkin. Shunday bo‘lsa-da, hazil ruhidagi tasvir butkul yo‘qolmagan. “Granata” qiyosiy obrazi rus tilida гранаты, o‘zbek tilida snaryadlar tarzida saqlangan. Demak, tarjimonlar ovoz chiqarayotgan qorinni “granata portlashiga” qiyoslash metaforasini qisman saqlab, uning kulgili ta’sirini ma’lum darajada etkazishga erishganlar. Lekin original matndagi bo‘rttirilgan ifoda tarjimada yumshatilgan maqsad matnni tabiiyroq qilish, o‘quvchiga tushunarliroq yetkazish bo‘lgan ko‘rinadi. Bu hol murakkab metaforalarni tarjima qilishda ko‘p uchraydi. Tarjimonlar ko‘pincha bevosita ma’no beruvchi yoki ma’lumroq obrazga almashtirishga majbur bo‘ladi[14;38].

Metaforaga yana bir misol jang sahnasida osmondan yovvoyi g‘ozlar ko‘rinib o‘tganda Kozolening ularni ovqatga yo‘yishi, u osmonda uchib o‘tgan g‘ozlarni ko‘rib, “... там летит десятка два порсий роскошного жаркого!” [12;9] deb xitob qiladi. So‘zma-so‘z “ana u yerda ikki o‘n porsiya a’lo qovurma uchib ketmoqda!”. Nemischa matnda bu ohangda berilgan kinoyali metafora aslida quyidagicha berilgan: “...dann fliegen da ja jetzt so fuffzehn, zwanzig tadellose Braten durch die Luft!” [11;12]. Rus tilida Kozole uchib ketayotgan g‘ozlarni “osmondagi 20 porsiya qovurma”ga qiyoslaydi. O‘zbek tiliga qilingan tarjimada esa shu joy: “Demak, hozir havoda o‘n besh-yigirmatacha qoyilmaqom qovurdoqlar uchib ketyaptiykan-da”[13;11] – tarzida ifodalagan. Kozole keyinroq ularni otib tushirmoqchi bo‘lganida Adolf Betke “bu bitliqi urushda ilk marta jo‘yali o‘q uzilgandi-ya” deydi. Bu gap ham aslida achchiq kinoyali metafora, chunki urushning behuda ekanini sha’ma qiladi. Bu fikr tarjimalarda deyarli o‘zgarmay berilgan va o‘quvchiga yetadi. Ushbu misollar shuni ko‘rsatadiki, metaforalarni tarjima qilishda ba’zan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalent topish qiyin bo‘ladi. Tarjimonlar ma’noni ochib berish yoki mos obraz bilan almashtirish yo‘li bilan hal qiladilar. Mazkur holatlarda mazmuniy adekvatlik [14;20] saqlansa, metaforaning ayrim detal yo‘qotilishiga ko‘z yumishga to‘g‘ri keladi. Muhimi, obrazning ta’siri o‘quvchiga yetib borishidir.

Remark matnida o‘xshatishlar, “как/wie” yordamida berilgan qiyosiy tasvirlar, ham muhim stilistik rol o‘ynaydi. Masalan, Yupp o‘zining “Bildung” ma’rifatli bo‘lish degan tushunchasiga umid bog‘lab yurganini tasvirlash uchun muallif uni cho‘kib borayotgan odamga qiyoslaydi: “...und er klammert sich daran wie an eine Planke im Meer, um nicht unterzugehen.”[11;8] – ya’ni, “...va u go‘yo cho‘kib ketmaslik uchun dengizdagi taxtaga yopishgandek, bu so‘zga yopishib olgan edi”. Bu o‘xshatish Yuppning ahvolini yaqqol ko‘rsatadi. Go‘yo kemasi halokatga uchrab, yog‘och taxta parchasini tutib qolgan odam kabi u ham o‘ziga ruhiy tayanch sifatida “ma’rifat” degan so‘zga yopishgan. Nemis tilida ushbu o‘xshatish biroz noodatiy. Odatda nemislar bunday holatni “qalqonga yoki somonga yopishgandek” deb ifodalaydilar. Darhaqiqat, ruscha va o‘zbekcha tarjimalar o‘z tillarida odatdagi shaklni tanlagan. Har ikki tarjimada ham dengizdagi taxta obrazi o‘rniga “cho‘kayotgan odam somonga yoki xasga yopishadi” degan maqolga asoslangan o‘xshatish ishlatilgan. Ruscha matnda “...цепляется, как утопающий за соломинку”[12;4] deb yoziladi, bu rus tilida keng tarqalgan ibora bo‘lib, bevosita “cho‘kayotgan odamning somonga yopishishi” degan ma’noni beradi. O‘zbek tiliga qilingan tarjimada esa: “...shu so‘zga xuddi cho‘kayotgan odam xasga yopishgandek tarmashadi”[13;8] deb tarjima qilingan. Ko‘rinib turibdiki, “Planke im Meer” obrazi o‘rniga har ikkala tarjimon o‘z an’analari va maqollaridan kelib chiqqan holda “somon va cho‘kayotgan odam” obrazini qo‘llagan. Bu hol tarjimada adaptatsiya [1;97] usulini ko‘rsatadi. Asl matndagi biroz g‘ayrioddiy tasvirni o‘quvchiga yaqinroq va tanishroq ibora bilan almashtirishgan. Natijada, marvarid kabi noyob detallar

qurbon qilinsa-da, o‘quvchi uchun tushunarli semantik asos saqlangan. O‘quvchi ham Yuppning “so‘nggi umid somonga yopishib olish” holatini aniq tasavvur qiladi. Bu tarjimada o‘xshatish maqsadi to‘liq ado etilganini ko‘rsatadi. Umuman, taqqoslarni tarjimada iloji boricha funksional ekvivalent bilan berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Asliyatda qanday obraz bilan berilishidan ko‘ra, o‘quvchida uyg‘otadigan assotsiatsiya muhimroqdir. Yuqoridagi misolda aynan shunday qilingan. O‘xshatishning ta’siri asliyat va tarjimada bir xil qolgan.

Roman boshlanishi og‘ir urush mavzusida bo‘lsa-da, unda kinoyali ohang va jasur askarcha hazillar ko‘p kuzatiladi. Qahramonlar o‘zaro aytishuvlarda ko‘pincha ironiyadan foydalanadilar, ya’ni gapning haqiqiy ma’nosi yuzaki ma’nosiga zid bo‘ladi, kinoya tarzida tushuniladi.[9;225] Bunday nozik o‘rinlarni tarjima qilish tarjimondan did va mahorat talab etadi, chunki kinoyani so‘zma-so‘z tarjima qilish ko‘pincha o‘quvchiga hazilni yetkazmaydi. Kirish qismida bir necha kinoyaviy epizodlar mavjud. Misol uchun, yuqorida eslatilgan Yuppning “Komische Art von Granaten”[11;7] degan gapi aslida kinoya edi. U xandaqda yotganlar orasida eshitilgan qorindagi tovushlarni hazillashib “g‘alati granatalar portlayapti” deb ataydi. Buning ustiga, bu gapni aytishda Yupp jiddiy ohangda gapiradi, xuddi rostakam granatalarni nazarda tutayotgandek. Albatta, Kozole darrov shubhalanib “Nimasi g‘alati ekan?” deb so‘raydi, Yupp esa “quloq sol-chi” deya davom etadi. Shu muloqotning o‘zidan ham kinoya ekani anglashiladi. Ruscha tarjima kinoyani to‘liq ifodalagan. “– Странные гранаты, – говорит вдруг Юпп.”[12], Yupp: “G‘alati granatalar-da” deb, ortidan Kozolening “Что ты несёш?” “Nimalar deyapsan o’zi?” degan savolini bergan. O’zbekcha tarjimada ham mazkur o’rin juda mos tarjima qilingan. “– Alomat snaryadlar, – deydi Yupp. – Nimasi alomat ekan? – so’raydi Kosole...”[13]. Bu erda “alomat” so’zi “g‘alati, ajabtovur” degan ma’noda bo’lib, nemischa komische Art “ajoyib tur” so’z birikmasiga juda yaqin ekvivalentdir. S’hunday qilib, tarjimonlar us’hbu kinoyani ham s’haklan, ham ruhan to’g‘ri us’hlaganlar. Hech qanday qo’s’himcha izoh yoki maxsus belgisiz, gap mazmunidan kinoya o’quvchiga etadi. Ironik effekt frontdagi tarang vaziyatni hazil aralas’h yumshatish tarjimada ham saqlangan.

Boshqa bir kinoyaviy epizodda Kozole uhlashga yotarkan, “uyda endi ikki kishilik karavotimda xotinim bor” deya oh urganida, Yupp uni mazax qilib “Wird schon einer dabei liegen”[11] “Baribir yonida kimdir yotgandir” deb qistalab qoladi. Bu ochiqcha kinoya edi. Kozolening xotini yoniga allaqachon kimdir yotib olgan bo’lishi mumkin degan mazax. Ruscha tarjimada bu hazil hatto kuchaytirilgan: “Кроват-то, поди, не пустует”[12] deb aytiladi, ortidan muallif izoh beradi: “парирует из своего угла”. Rus tilida “Кроват ... не пустует” iborasi “karavot bo’sh emasdir” degani bo’lib, aslida “yonida kimdir bordir” degani. Tarjimon Yuppning kinoyasini aniq etkazgan, natijada Kozole jahli chiqib, ko’zini ochib unga tikiladi. Qizig‘i, o’zbekcha tarjimada Yuppning javobi yanada dag‘alroq chiqqan: “Möcht ich ihr nicht raten, du Rheineule”[11] degan Germaniyada faqat mahalliy ma’noda tushuniladigan haqorat o’rniga “Sassiq taka, qog‘ozboz!” deb haqoratomuz so’zlar bilan javob beradi. Rheineule – Reyn boyqushi, asl matnda Yuppni mazaxlab aytilgan so’z edi, tarjimon buni tushunarsiz qoldirmaslik uchun Kozolening og‘zidan Yuppga mos haqorat topgan: “sassiq taka” va “qog‘ozboz”. Bu bilan hazil ruhi saqlanib qolgan, aksincha, o’zbek o’quvchisiga yanada ravshan bo’lgan. Umuman, kirish qismidagi qo’polroq askarcha hazillar har ikki tarjimada imkon qadar tabiiy berilgan. Ruscha matnda “канселярская крыса” kabi iboralar bilan Yuppni masxara qilish keltirilgan bo’lsa, o’zbekchada yuqoridagi hujjatboz so’zi ishlatilgan. Bularning ikkalasi ham originaldagi “Schreiberseele” haqoratining ruhini beradi. Shunday qilib, kinoya va yumor tarjimasi muvaffaqiyatli chiqqan. Askarlar orasidagi kinoyali dialoglar rus va o’zbek tillarida ham bemalol tushunilib, asliyatdagidek ta’sir o’quvchiga etib bormoqda.

Xulosa va takliflar. Erix Mariya Remarkning “Der Weg zurück” romanidagi boy badiiy tasvir va ifoda vositalari uch til – nemis, rus va o’zbek – tillari orasida qiyosiy tahlil qilinar ekan, quyidagi xulosalarga kelindi:

Metafora va o’xshatishlar tarjimada, asosan, ma’noga sodiq tarzda aks ettiriladi, zarur hollarda madaniy moslashuv qo’llanadi. Tarjimonlar o’quvchiga notanish bo’lishi mumkin bo’lgan obrazlarni tanishroq ekvivalentlar bilan almashtirib, funksional ekvivalentlikni ta’minlaydilar. Natijada, originaldagi obrazlardan ayrim detallar yo’qolsa-da, ular bergan hissiy samara saqlanadi.

Kinoya va sarkazm asar ohangining muhim qismi bo’lib, har ikkala tarjimada ham to’liq saqlangan. Bunga erishishda tarjimonlarning boy lug‘at va uslubiy sinonimlardan foydalanishi muhim rol o’ynaydi. Askarlar tiliga xos qo’pol iboralar va hazillar rus va o’zbek tillarida mos ekvivalentlarda berilgan. Ironik ma’no o’quvchiga yetishi uchun hech bir tarjimada alohida izoh yoki belgi kerak bo’lmagan, originaldagidek kinoyaning kontekst orqali anglashilishiga erishilgan.

Umuman olganda, Erix Mariya Remark romanining kirish qismidagi badiiy tasvir va ifoda vositalari rus va o’zbek tillariga muvaffaqiyatli tarjima qilingan deb xulosa qilish mumkin. Tarjimonlar original matnning mazmunigina emas, balki uning uslubiy va emotsional qatlamlarini ham diqqat bilan o’rganib, original matnda o’quvchilarga yetkazilishi ko’zda tutilgan asosiy maqsadni til imkoniyatlari doirasida maksimal darajada taqdim qilishga intilganlar. Bu borada ular turli tarjima texnikalaridan foydalanganliklari kuzatildi. Ekvivalent obraz topish, qisqartirish yoki kengaytirish, kuchaytiruvchi qo’shimchalar kiritish, ba’zan hatto begona so’zlarni qoldirish va hokazo. Mazkur tarjimalar tahlili yana bir bor ko’rsatadiki, badiiy tarjimada asosiy mezon asarning ma’no va ruhini o’quvchiga yetkazishdir. Badiiy tasvir va ifoda vositalari esa shu ma’no va ruhning ajralmas qismi bo’lgani uchun ularni tarjimada e’tiborsiz qoldirmaslik lozim. Remark asarini o’zbek va rus tillariga o’girgan tarjimonlar bunga erishgan. Natijada o’quvchilar original asardagi kabi urush dahshati, sarkazm va umid hissini to’la his eta oladilar. Bu esa, shubhasiz, tarjima muvaffaqiyatini ta’minlagan omillardir.

ADABIYOTLAR

1. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent. O‘qituvchi 1978, 220 b.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: -T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 -680 b.
3. Dieter Gyots. Taschenwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. Langenscheidt KG Berlin und München,, 2007. – 635 S.
4. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998. – 160 b.
5. Ilka Peshek. Das Wörterbuch der Synonyme. Berlin, Dudenverlag 2016. – 352 S.
6. M. G. Sushko-Bezdenejnix. Стилистика немеского языка. Sumi: Sum DPU,2011. – 120 c.
7. Naer, Nina Mixaylovna. Stilistik der deutschen Sprache: Uchebnoe posobie / N. M. Naer. –Moskva: MPGU, 2015. – 256 c.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: -T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 680 b.
9. Pan G. V. Deutsche Stilistik T.: 2010. – 280 S.
10. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati / D.quronov, Z.Mamajonov, M.Sheralieva. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 408 b.
11. Remark E. M. Der Weg zurück. Berlin. Im Propyläen-Verlag 1931. – 289 S.
12. Remark E. M. На обратном пути [перевод с немеского Е. Шукшиной]. – Москва : Издателство АСТ, 2021. – 352 с.
13. Remark E. M. Ortga yo‘l. Saidjalol Saidmurodov tarjimasi T.: Faktor books, 2022. – 320 b.
14. Nazarov Q.N., Xolmatova I.M. Tarjima nazariyasi va amaliyoti.(ma’ruzalar matni) Andijon. “Malxam-M” KTIChSK 2005– 44b

Maqolaning nashr etilishi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot

Mazkur ilmiy jurnal **O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining tegishli qarorlari bilan tasdiqlangan** nashrlar qatoriga kiritilgan.

Jurnal Oliy attestatsiya komissiyasining **dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI** tarkibida mavjud bo‘lib, ushbu Ro‘yxatning **82–89-sahifalarida**
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI ixtisosligi rukni ostida qayd etilgan.

Izoh: Ushbu ma’lumot Jurnalning O‘zR OAK tomonidan rasman tan olinganligini tasdiqlaydi.